

## Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)  
(2019-yil 1-may holatiga)

2019-yilning yanvar-aprel oylarida Viloyatda 1103 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 565 taga ko'pdir.










Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1612 ta (14,2 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 11360 tani tashkil etgan.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar  
va tashkilotlar soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


	Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1460	1298	110
	Sanoat	1562	1482	236
	Qurilish	1114	1053	127
	Savdo	3228	3025	352
	Tashish va saqlash	616	577	20
	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	779	732	139
	Axborot va aloqa	166	157	8
	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	135	133	5
	Boshqa turlari	3037	2903	106



**Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yilning 1-may holatiga 12097 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 26,7 % savdo, 12,9 % sanoat, 9,2 % qurilish, 12,1 % Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 5,1 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 1,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 25,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan  
korxona va tashkilotlar soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (3722 ta), Sirdaryo (1911 ta), Sayhunobod (984 ta) va Bayovut (928 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (278 ta), Sardoba (474 ta) hamda Oqoltin (511 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Ro'yxatdan o'tgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda.**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*






### Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar. (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 11360 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1612 ta (14,2 %) ga o'sgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,6 % savdo, 13,0 % sanoat, 9,3 % qurilish, 11,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 5,1 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 1,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 25,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (3514 ta), Sirdaryo (1755 ta), Sayhunobod (955 ta), Boyout (894 ta) va Yangiyer shahri (839 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (251 ta), Sardoba (457 ta) hamda Xovos (543 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


### Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*






**Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar.**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-aprel oylarida 1103 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 105,0 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Guliston shahri (275 ta), Sirdaryo (197 ta) va Boyovut (93 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (22 ta) hamda Xovos (51 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)






Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (352 ta), sanoat (236 ta), qurilish (127 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (139 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (5 ta), axborot va aloqa (8 ta) hamda tashish va saqlash (20 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.05.2017 y.		01.05.2018 y.		01.05.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>622</b>	<b>100,0</b>	<b>538</b>	<b>100,0</b>	<b>1103</b>	<b>100,0</b>
Savdo	147	23,6	141	26,2	352	31,9
Sanoat	122	19,6	80	14,9	236	21,4
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	141	22,7	106	19,7	110	10,0
Qurilish	51	8,2	68	12,6	127	11,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	53	8,5	33	6,1	139	12,6
Tashish va saqlash	42	6,8	14	2,6	20	1,8
Axborot va aloqa	9	1,4	6	1,1	8	0,7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3	0,5	6	1,1	5	0,5
Boshqa turlari	54	8,7	84	15,7	106	9,6

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar  
kesimida soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*








## TIJORAT KORXONALARNI.

2019-yil 1-may holatiga 9321 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 2833 ta, oilaviy korxonalar – 139 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 6043 ta va boshqalar 306 tani tashkil etgan.

### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yil 1-may holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 119 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 35 taga yoki 41,7 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.


## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda



## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Sirdaryo tumani (49 ta yoki jamidagi ulushi 41,2 %), Guliston shahri (25 ta yoki 21,0 %) va Yangiyer shahri (15 ta yoki 12,6 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Xovos tumani (1 ta yoki 0,8 %), Guliston tumani (1 ta yoki 0,8 %) va Sardoba tumani (2 ta yoki 1,7 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 80 tani (67,2 %), savdoda 15 tani (12,6 %) hamda boshqa tarmoqlarda 7 tani (5,9 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa tashish va saqlashda 4 tani (3,4 %), Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida esa 5 tani (4,2 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 tani (0,8 %), axborot va aloqa 1 tani (0,8 %), tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa yashash va

ovqatlanish bo'yicha xizmatlari hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yilning yanvar-aprel oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 16 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 2 ta, Qozog'iston Respublikasi – 4 ta, Turkiya Respublikasi – 3 ta, Xitoy Xalq Respublikasi -2 ta hamda -5 tasi boshqa davlatlar hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, 2019-yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (8 ta), savdo (5 ta), qurilish (2 ta), axborot va aloqa (1 ta) hissasiga to'g'ri keladi.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
soni, o'sish dinamikasi**

	2018-yil yanvar-aprel		2019-yil yanvar-aprel	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
<b>Jami</b>	<b>4</b>	<b>100,0</b>	<b>16</b>	<b>100,0</b>
<b>Sanoat</b>	4	100,0	8	50,0
<b>Savdo</b>	-	-	5	31,3
<b>Qurilish</b>	-	-	2	12,5
<b>Axborat va aloqa</b>	-	-	1	6,3



**Kichik korxona va mikrofirmalar soni.**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2019-yil 1-may holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 9267 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1- may holatiga qaraganda 19,0 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, yani 3021 tasi (32,6 %) Guliston shahri, 1492 tasi (16,1 %) Sirdaryo, 784 tasi (8,5 %) Sayhunobod hamda 716 tasi (7,7 %) Yangiyer shahri hissalariga to'g'ri keladi.




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 9267 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3014 tasi (32,5 %) – savdo, 1457 tasi (15,7 %) - sanoat, 1048 tasi (11,3 %) - qurilish, 1280 tasi (13,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 730 tasi (7,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 572 tasi (6,2 %) - tashish va saqlash, 150 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasi, 87 tasi (0,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 929 tasi (10,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.




Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-aprel oylarida 1054 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 13,4 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Guliston shahri (259 ta), Sirdaryo (193 ta) va Mirzaobod (84 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Shirin shahri (19 ta), Oqoltin (64 ta) hamda Xovos (49 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (352 ta), sanoatda (236 ta), qurilishda (127 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (110 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (139 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (5 ta), axborot va aloqada (8 ta) hamda tashish va saqlashda (20 ta) tashkil etilgan.

## Oilaviy korxonalar soni



Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019-yilning 1-may holatiga 143 tani tashkil etib, ulardan 139 tasi yoki 97,2 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 43,9 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.


### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning** iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 45,3 % yoki 63 tasi sanoat, 18,0 % yoki 25 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 15,1 % yoki 21 tasi savdo, 14,4 % yoki

20 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,4 % yoki 2 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 1 tasi axborot va aloqa hamda 5,1 % yoki 7 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko`rsak, eng ko`pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa Axborot va aloqa, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to`g`ri keladi.

Sirdaryo viloyati statistika  
boshqarmasi Statistik registrnlarni  
yuritish bo'limi Tel.:67-225-31-00